

**Turob JUMAYEV,**  
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti  
faxriy professori (pensioner), geografiya fanlari doktori.  
Tel: (93) 576 19 51  
**Shuxrat QURBONOV,**  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida dotsenti,  
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
E-mail: [qurbonov1977@mail.ru](mailto:qurbonov1977@mail.ru)  
Tel: (90) 323 08 52

O'zMU professori, g.f.d. N.Q.Komilova taqrizi asosida

## SOME ISSUES OF ECONOMIC-GEOGRAPHICAL STUDY OF POPULATION AND SETTLEMENTS IN MOUNTAIN TERRITORIES

Annotation

Using the example of the mountain zone of the Republic of Uzbekistan, the article discusses theoretical issues of studying the population of mountain territories, the forms of population settlement inherent in mountain areas, and the geographical features of the formation of settlements in mountainous landscapes.

**Key words:** mountains, mountain zone, mountain areas, mountain population, settlements in mountain areas, mountain villages, mountain tourism and recreation, sustainable development of mountain areas.

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ И НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ ГОРНЫХ ТЕРРИТОРИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются на примере горной зоны Республики Узбекистан теоретические вопросы исследования населения горных территорий, присущие горным районам формы расселения населения, географические особенности формирования поселений в условиях горного ландшафта.

**Ключевые слова:** горы, горная зона, горные районы, горное население, поселения горных территорий, горные села, горный туризм и отдых, устойчивое развитие горных территорий.

## TOG'LI HUDUDLAR AHOLISI VA AHOLI MANZILGOHLARINI IQTISODIY-GEOGRAFIK O'RGANISHNING BA'ZI MASALALARI

Annatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi tog' zonasi misolida tog'li hududlar aholisi, tog'li hududlarga xos bo'lgan aholi joylashuv shakllari, tog' landshaftlarida aholi punktlari shakllanishining geografik xususiyatlarini o'rganishning nazariy masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tog'lar, tog'li zona, tog'li hududlar, tog'li aholi, tog'li hududlardagi aholi punktlari, tog'li qishloqlar, tog' turizmi va rekreatsiyasi, tog'li hududlarni barqaror rivojlantirish.

**Kirish.** Mamlakatimiz taraqqiyotining 2016 yildan boshlangan yangi bosqichida tog'li hududlarning barqaror rivojlanishi yo'nalishida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida tog'li hududlari bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qililib, ular hayotga jadal tatbiq qilinmoqda. Bu borada tog'li hududlarida kartoshkachilik va dorivor o'simlikchilikni rivojlantirish [5], tog'li tumanlari qishloq xo'jaligini chuqur ixtisoslashtirish, tog'li agrar-sanoat klasterlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, So'x [2] va Bo'stonliq [1] tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tekislik-tog'li tumanlarini (Kosonsoy, Chortoq, Yangiqo'rg'on) meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashtirib rivojlantirish [4], Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog' hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish [3], tog'li erkin va maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirishga ("Angren", "Urgut", "Chorvoq") turizm erkin iqtisodiy zonasi, "Bo'stonliq-Farm", "Parkent-Farm", "Zomin-Farm", "Boysun-Farm" va h.k.) doir chora-tadbirlar [7; 6] ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar O'zbekiston tog'li hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, mazkur hududlarda sermahsul, ekologik maqbul tog'li madaniy landshaftlarini barpo etishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni amalga oshirish O'zbekiston tog'li tarixidagi keng miqyosdagi birinchi qimmatli amaliyot hisoblanadi.

O'ziga xos geografik xususiyatlarga ega bo'lgan tog'li hududlar nafaqat tabiiy va xo'jalik tuzilishining ko'plab xususiyatlari, balki aholisining o'ziga xos ijtimoiy sharoitlari bilan ham ajralib turadi. Ijtimoiy jihatdan tog'li aholisi uchun kambag'allikning yuqori darajasi va asrlar mobaynida shakllangan va tog'larga moslashgan an'anaviy malakalarning yo'qolib borishi xosdir. Ko'pincha tog'li hududlar aholisining turmush sharoiti va sifati ko'plab omillar, xususan, geografik joylashuvi, ekstremal tabiiy-iqlim sharoitlari, ekin maydonlarining yetishmasligi va ularga yuqori demografik bosim, tabiiy xavflarning yuqoriligi, murakkab transport sharoitlari sababli muammoli bo'ladi. Ana shunday holatlardan kelib chiqib, tog'li hududlar aholisi va aholi manzilgohlarini qiyosiy geografik o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonda tog'li hududlarning iqtisodiy-geografik jihatlari Z.M.Akramov, O.B.Otamirzayev, T.J.Jumayev, A.Soliyev, A.A.Qayumov, A.N.Ro'ziyev, Mahamadaliyev R.Y., Tojiyeva Z.N., Komilova N.Q., Amonov X. Muxamedov O.L., Sattorov A.U., Safarova N.I., Qurbonov Sh.B., V.N.Fedorko va boshqalarning ishlarida tadqiqot etilgan.

Tog'li mavzulari bo'yicha to'plangan ma'lum ishlanmalarga qaramay, iqtisodiy-geografik adabiyotlarda tog'li zonasi barqaror rivojlanishining zamonaviy muammolari yetarli darajada tadqiqot etilmagan. Yaratilgan nazariy-amaliy ishlanmalar, asosan, 1970-2000 yillarga taalluqli bo'lib, ko'p darajada bozor iqtisodiyoti sharoitida tog'li zonasining barqaror rivojlanishining murakkab muammolarini yaxlit ko'rib chiqish va tadqiqot etishga imkon bermaydi. O'zining mohiyatiga ko'ra, O'zbekiston tog'li zonasining barqaror rivojlanishini yangi sharoitda zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda bajarilgan kompleks iqtisodiy-geografik tadqiqotlar mavjud emas.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishga oid bo'lgan qarorlar va farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida yaratilgan nazariy bilimlar, O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining geografik jihatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan turli yillarda ishlab chiqilgan "Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalari" metodologik asos vazifasini bajaradi. Maqolaning uslubiy asosini kompleks yondoshuv tashkil etadi. Shu bilan birga, tizim-tarkib, tarixiy, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tog' aholisi tog' resurslarining asosiy foydalanuvchisi, muhofaza qiluvchisi sifatida barqaror tog' rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Tog' hududlarining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, ishlab chiqarish va "tog'" tovarlari va xizmatlarini yetkazib berishda tog' rayonlarining nisbiy afzalliklaridan foydalanish, barqaror tog' rivojlanishi mexanizmlarini ishga tushirish kabi muhim yo'nalishlar tog' aholisi bilan bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda tog' aholisi geografiyasining umumiy xususiyatlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: aholi zichligining pastligi (sug'oriladigan tekislikka nisbatan), aholi yashash manzillari to'ring yoyilgan – chiziqli-o'choq va uyali shaklda ko'rinishi, ularning gidrogeografiya va irrigatsiya tizimlariga bog'liqligi, aholi joylashishining katta notekisligi, ko'plab qishloqlarda aholi sonining kamligi, aholi yashash manzillari turlarining o'ziga xos xilma-xilligi va geografik aniqligi (ayniqsa, tarixiy-madaniy va etnografik xususiyatlar), shaharlashish darajasi pastligi va yirik ko'p funksiyali mahalliy markazlarning yetarli emasligi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi darajasining pastligi va hokazo.

Barcha tog' zonasi uchun umumiy bo'lgan holat – joylar balandligi oshgan sari aholi yashash manzillari aholisi umumiy sonining kamayishi, balandlik zonalariga pog'onalar bo'yicha ham shunday jarayon sodir bo'lishi yaqqol kuzatiladi. Aholi, eng avvalo, tog' botiqlarida, tog' daryolari vodiylarining kengaygan qismlarida va past tog'lar yonbag'irlarida joylashgan va to'plangan.

O'zbekiston relyefining xilma-xilligi bilan ajralib turadi, odatda shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa qarab kengayib boradi. Shu bilan birga, butun respublika hududining 78,7 foizini tekisliklar, 21,3 foizini tog' va tog' oldi hududlari egallaydi.

Respublika doirasida yer yuzasining mutlaq balandligi -12 m dan (Qizilqumdagil Mingbuloq pastligi) 4643 m gacha (Hisor tizmasidagi Hazrat Sulton cho'qqisi). Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari tarkibida tog'li hududlar mavjud. Tog'li hududlar respublikaning 163 ta qishloq ma'muriy tumanlaridan 51 tasida kichik darajada bo'lsa ham mavjud. Biroq O'zbekistonning aksariyat ma'muriy tumanlarida tog'lar aholi yashamaydigan yoki kam aholi yashaydigan, ko'pincha sust rivojlangan hududlarga mos keladi.

O'zbekiston tog'lari Markaziy Osiyoning eng qadimdan o'zlashtirilgan va aholi ko'p yashaydigan hududlaridan biri hisoblanadi. XIX asr ikkinchi yarmi boshida O'zbekiston aholisining 1/5 qismi, 1897 yilda esa 17,4 foizi (yoki 686 ming kishi) tog'larda yashagan. 1920-2020 yillarda, ya'ni 100 yil davomida mamlakatimiz tog' aholisi soni 6,1 marta ko'payib, 2020 yilda taxminan 4,3 million kishiga yetgan. Hozirgi vaqtda tog' aholisi O'zbekiston aholisining 12,7 foizini tashkil etadi. So'nggi yuz yilda O'zbekiston aholisi soni 7,6 marta ko'paygan, ya'ni aholi o'sish sur'atlari tog'larga nisbatan 1,5 marta ko'proq bo'lgan. Bunda tog' aholisini ko'p marta tekisliklarga ommaviy ko'chirish oqibatlarida katta ta'sir ko'rsatgan, deb hisoblaymiz [9].

O'zbekistonning eng baland tog' qishloqlari Hisor tog'lari janubiy yonbag'irlarida Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida 2500-2600 metr balandlikda joylashgan (Hurvatan, Tamshush, Shatrut, Tamarqut, Kshtut qishloqlari). Mamlakatimiz tog'larida doimiy aholi yashaydigan aholi punktlarining eng baland chegarasi 2600 metrni (Kshtut) tashkil etadi.

Tog' aholisi soni o'zgarishining umumiy tendensiyasi uning yuqori sur'atlari bilan ta'riflanadi. Masalan, faqat 1965-2001 yillarda tog' zonasi aholisining umumiy soni uch marta ko'paygan (906 ming kishidan 2,8 mln. kishigacha). 2000-2020 yillarda tog' zonasi aholisi 1,4 marta ko'paygan.

Aholining geografik joylashuvining doimiy o'zgarishi nafaqat tabiiy ko'payishdagi farqlar, balki aholining hududlar bo'ylab mexanik almashinishi, ya'ni migratsiyasi natijasida ham ro'y beradi. Shu nuqtai nazardan, dunyoning barcha tog' rayonlariga xos umumiy qonuniyat ulardan aholi migratsiyasining izchil o'sishi hisoblanadi, bunda migratsiya jadalligi balandlik oshgan sari ko'payib boradi [8]. Mazkur qonuniyat O'zbekiston tog'lariga ham xos, lekin ular o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan. Sobiq ittifoq davrida migratsiya tog' aholisini tekisliklarga yirik miqyosda tashkiliy ko'chirish orqali amalga oshirilgan. XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarda boshlangan ko'chirish XX asrning 50-yillari boshida va 60-yillarida o'zining eng yuqori darajasiga ko'tarilgan.

Tog' zonasida aholining katta qismi qishloqlarda yashaydi. Bu yerda uch mingdan ortiq tog' qishloqlari va faqat 40 taga yaqin shahar va shaharchalar mavjud. Tog'larda 100 kv km maydonga 33 ta aholi yashash manzillari to'g'ri keladi. Umuman qishloqlar tuzilmasida aholi soni bo'yicha kichik qishloqlar ustun turadi. Aholi yashash manzillari asosan, eski va an'anaviy qishloqlar to'ridan tarkib topgan.

Qishloq aholi punktlari ustunligi, shaharlashish darajasining pastligi, asosan, murakkab relyef (tog'lar shaharlar kengayishiga to'siq bo'ladi) va tog' hududlarini o'zlashtirish darajasining pastligi bilan bog'liq. Tog'larda asosan ma'muriy vazifalarni bajaradigan yoki foydali qazilmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan kichik shaharlarning kam sonli to'ri mavjud. Ularning atrofni o'rab turgan tog' qishloqlariga ta'siri kam; ular vazifasi va morfologik tuzilmasi bo'yicha qishloqlarga xos xususiyatlarni o'zida saqlab qolmoqda. Shunga qaramasdan, tog' shaharlari tog' zonasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida aholi joylashishining muhim elementi sifatida sezilarli ijobiy rol o'ynaydi. Ular ma'muriy markazlar sifatida tog' tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy, xo'jalik rivojlanishini boshqaradi, shu nuqtai nazardan ma'lum darajada aholini o'ziga tortadi va ularning ko'chib ketishini birmuncha pasaytiradi. Tog' sharoitida yirik shaharlarning shakllanishi qiyin kechadi, ko'plab to'siqlarga uchraydi (murakkab relyef, balandlik zonalligi, tabiiy landschaft xususiyatlari va h.k.). Shu sababdan tog'larda yirik shaharlarni barpo etish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. Tog'larda kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirishni faollashtirish maqsadga muvofiq.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida bayon qilingan tahlil natijalari tog' hududlari aholisini joylashtirishni takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini aniqlash va tavsiya etishga imkon beradi: 1) mahalliy tizimlarning markazlarini (yirik qishloqlar va kichik shaharlar) aniqlash va mazkur tizimlarni maqsadga muvofiq optimal shakllantirish; 2) qishloq aholi punktlari tuzilmasini infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirish vositasida yaxshilash; 3) tog' tumanlarida migratsiyani tartibga solish, tog' muhiti resurslaridan foydalanish, ularni asrash va muhofaza qilishni ta'minlaydigan aholi punktlarining maqsadga muvofiq to'rini saqlash asosida tog' hududlari aholisiz qolishini bartaraf etish; 4) tog' tumanlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, kichik shaharlar rivojlanishini faollashtirish; 5) tog' tayanch aholi punktlarini, ayniqsa, tog' va tekislik, tekislik-tog' tumanlari tutashgan joylardagi aholi punktlarini rivojlantirish.

Mazkur muammolarni hal etish, birinchi navbatda, raqobatbardosh, diversifikatsiyalangan yangi tog' ijtimoiy-iqtisodiy kompleksini barpo etish va rivojlantirish, tarmoqlar va tumanlar iqtisodiyoti ixtisoslashini chuqurlashtirish, faoliyatning yangi turlarini, ayniqsa, rekreatsiya va turizm, xizmat ko'rsatish, tabiat muhofazasi, infratuzilma va boshqa sohalarni rivojlantirishni talab qiladi.

Tog' hududlarida aholi punktlari tizimini istiqbolda takomillashtirish "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida ishlab chiqarish kuchlarining quyidagi muammolarini hal etish bilan uzviy bog'liq [9]: 1) an'anaviy xo'jalikni modernizatsiyalash (kosibchilik va hunarmandchilikni rivojlantirish, mahsulot va chiqindilarni qayta ishlash, muzlatgich xo'jaligi, go'sht kombinatlari, agrarsanoat klassterlari), yangi tarmoqlarni rivojlantirish, tog' gidroenergetikasi va tog'-kon hamda ko'mir sanoatini rivojlantirish, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish asosida sanoatlashtirishni tezlashtirish; 2) urbanizatsiyalashni (shaharlashtirish) rag'batlantirish; 3) tog' qishloq xo'jaligini intensivlashtirish; 4) yo'l-transport-kommunikatsiya to'rini jiddiy yaxshilash, tog' tizmalaridan o'tadigan yangi avtomobil yo'llarini qurish, tog' vodiylarining ichkarisiga temir yo'l va avtomobil yo'llarini o'tkazish; 5) barcha joyda tog' rekreatsiyasi va turizmini rivojlantirish; 6) ham ishlab chiqarish, ham aholiga xizmat ko'rsatadigan infratuzilmani, zamonaviy bozor infratuzilmasi tizimini barpo etish va rivojlantirishni (ko'rgazmalar, sug'urta kompaniyalari, konsalting firmalari, o'quv markazlari va h.k.) ham qo'shib, yaxshilash; 7) mahalliy tog' resurslariga asoslangan, aholi bandligi muammosini hal etishning asosiy yo'nalishi – kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.

Shuningdek, rivojlangan transport-kommunikatsiya tizimisiz barqaror rivojlanishning birorta muammosini, shu jumladan, aholini joylashtirishni hal etib bo'lmaydi. Asosiy e'tibor rayonlararo, ichki rayonlararo va dovonlardan o'tadigan qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining balandlik-zonal to'rini, shuningdek, mustahkam va ishonchli ichki xo'jalik kommunikatsiyalari – ham avtomobil, ham tog' transporti vertikal turlari – osma dor yo'llarini rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Shu bilan birga, tog' aholi punktlarining bunday takomillashtirish ekologik-iqtisodiy muvozanatni asrashga imkon beradi, ular tog' aholi punktlari aholisi manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi zarur. Shu sababdan tog' aholisiga munosib yashash sharoitini yaratmasdan va ularning farovon yashashini ta'minlamasdan turib, barqaror tog' rivojlanishiga va umuman mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishib bo'lmaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2020 yildagi "Bo'stonliq tumanida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish orqali turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6053-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2020 yildagi "2020-2021 yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4798-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PQ-4995-sonli "2021-2023 yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog' hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.01.2021 yildagi PQ-4941-sonli "Namangan viloyatining Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2020 yildagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4670-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.11.2020 yildagi 698-sonli "2020-2022 yillarda Jizzax viloyatining Zomin tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2017 yildagi PF-5032-son "Nukus-Farm", "Zomin-Farm", "Kosonsoy-Farm", "Parkent-Farm", "Sirdaryo-Farm", "Boysun-Farm", "Bo'stonliq-Farm" va "Parkent-Farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
8. Джаошвили В.Ш. Экономико-географические проблемы горных территорий. В кн: Комплексное географическое изучение и освоение горных территорий. Л., 1980. С 131-144.
9. Jumaev T.J. Bizning ulug'vor tog'larimiz: Yangi O'zbekiston tog' zonasining barqaror rivojlanishi. Nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 587 bet.